

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**"TURIZM VA SERVIS"  
KAFEDRASI**

Qo'lyozma huquqida:  
UDK: 338.48:902.7 (575.171)

**RO'ZIMATOVA SHAXLO BALTABOY QIZI**

**ETNOGRAFIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING XUDUDIIY  
JIHATLARI (XORAZM MISOLIDA)**

**71010401 – "Turizm (faoliyat turlari bo'yicha)"  
mutaxassisligi bo'yicha**

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan  
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: i.f.d., prof. A. Norchayev**

**Toshkent-2023**

Magistrlik dissertatsiya ishi "Turizm va servis" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

17 -sonli bayonnoma " 20 " 04 2023 y.

Kafedra mudiri: I.A. Axmedov

  
imzo

05.05.2023  
sana

Ilmiy rahbar: A.N. Norchayev

  
imzo

05.05.23  
sana

Talaba:

Sh. B. Ro'zimatova

  
imzo

05.05.23  
sana

Dissertatsiya Magistratura bo'limida 2024 yil " 20 " dekabr

№ 808 T. raqami bilan ro'yxatga olingan.

## ANNOTATSIYA

Turizm, Jahon turizm tashkiloti ta'rifiga ko'ra, nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, madaniy, ekologik va siyosiy hodisadir. Shunga asoslanib, etnografik turizmni rivojlantirishning xududiy jihatlaridan ushbu omillarning barchasini maksimal darajada hisobga olgan holda foydalanish kerak. Shu jumladan, O'zbekistonda ham turistik xizmatlar sifati jihatdan yaxshilanib, son jihatdan kengayib borayotgan bir davrda etnografik turizmni rivoshlantirishning xududiy jihatlari (Xorazm misolida) orqali ularning sifatini yaxshilash, raqobatbardoshligini oshirish, turistik mahsulotlar iste'molchilari ko'proq jalb qilish zamon talabidir. Shu jihatdan ham, mavzuning dolzarb ekanligini hisobga olgan holda, ushbu mavzu doirasida tadqiqot va tahlillarni olib bordik.

Mavzuning maqsad va vazifalarini yoritib berish jarayonida xorijiy va mahalliy manbalardan, ilmiy tadqiqotlardan keng foydalandik.

Mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyati keng bo'lib, Xorazmda etnografik turizmni rivojlantirish orqali turistik xizmatlar sifatini oshirish yo'llari bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqdik.

Kalit so'zlar: turizm, turist, etnografik turizm ,madaniy meros,tarixiy obidalar,Xorazm viloyatining etnik turizmi.

## SUMMARY

Tourism, according to the definition of the World Tourism Organization, is not only an economic, but also a social, cultural, ecological and political phenomenon. Based on this, the territorial aspects of ethnographic tourism the of development should be used with maximum consideration of all these factors. In particular, at a time when tourism services are improving in terms of quality and expanding in number in Uzbekistan, it is the need of the hour to improve their quality, increase their competitiveness, and attract more consumers of tourist products through regional aspects of the development of ethnographic tourism (in the case of Khorezm). In this regard, considering the relevance of the topic, we conducted research and analysis within this topic.

In the process of elucidating the goals and tasks of the topic, we used foreign and local sources, scientific research.

The scientific and practical importance of the topic is wide, and we have developed scientifically based proposals and recommendations on ways to improve the quality of tourist services through regional aspects of the development of ethnographic tourism in Khorezm.

Key words: tourism, tourist, ethnographic tourism, cultural heritage, historical monuments, ethnic tourism of Khorezm region.

## MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro'yxati.....	6
Keltirilgan rasmlar ro'yxati.....	6
Keltirilgan qisqartmalar.....	6
<b>KIRISH.....</b>	<b>7</b>
Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	8
Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....	10
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	10
Tadqiqotning ob'ekti va predmeti.....	11
Tadqiqotning ilmiy yangiligi.....	11
Dissertatsiya таркибининг қисқача тавсифи.....	11
<b>I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....</b>	<b>13</b>
1.1. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi.....	13
1.2. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	15
1.3. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar sharhi.....	18
<b>II BOB. METODOLOGIYA.....</b>	<b>19</b>
2.1. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni.....	19
2.2. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar.....	19
2.3. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	19
2.4. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	21
<b>III BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....</b>	<b>22</b>
3.1. Xorazm mintaqasida turizmning rivojlanishi asoslari.....	22
3.2. Xorazm viloyatidagi madaniy-meros obidalarining turizmni rivojlantirishdagi o'rni .....	28
3.3. Xorazm viloyatida kulolchilik, cho'girma va yog'och o'ymakorligining rivojlanishi .....	37
3.4. Xorazm viloyatida etnografik turizmning rivojlanishi shart-sharoitlari va holati .....	50
3.5. Tahlillardan olingan natijalar sharhi.....	59
<b>XULOSA.....</b>	<b>61</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar.....</b>	<b>63</b>
<b>Ilovalar.....</b>	<b>65</b>

## KIRISH

Turizm – inson hayoti faoliyatini ma'lum bir tarzini ifodalaydigan tushunchadir. Bu dam olish, ko'ngilocharlik, sport, atrof-muhitni anglash, savdo, davolanish, sayohat qilish kabi ko'plab narsalarni qamrab oladi. Biroq bu faoliyat vaqtinchalik bo'lib ya'ni ma'lum bir turistning o'z mamlakatidan boshqa mamlakatga haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan tarzda uning yashash joyidan uzoqlashishi turizm hisoblanadi.

Turizmning tarixi XIX asr boshlariga borib taqaladi. Dastlab Angliyadan Fransiyaga uyushgan sayyohlik tashkil etilgan. Turizmning asoschisi esa Tomas Kuk hisoblanadi. U 1843-yilda birinchi temir yo'l sayyohligini tashkil etgan. Sekin astalik bilan bu faoliyat dunyoning boshqa mamlakatlarida ham rivojlana boshlagan. Hozirgi kunda esa bu ko'plab mamlakatlarning topayotgan noni, asosiy ishi desak adashmagan bo'lamiz.

Barchamizga ma'lum turizmning bir qancha turlari mavjuddir. Har bir mamlakatning urf-odat va an'analaridan kelib chiqqan holda tabiiy sharoiti, iqlimi, joylashgan yerini o'rgangan holda turizmning qaysidir turini rivojlantirishga harakat qiladi. Misol uchun Shvetsariya o'zining tabiiy iqlimi, yam-yashil tabiati, qir-adirlari bilan mashhur bo'lsa, Turkiya savdo-sotiq, ziyorat, gastronomik turizmi bilan dunyoga mashhurdir. Bizning mamlakatimizda esa asosan ziyorat, diniy-tarixiy, gastronomik turizm turlari juda yaxshi rivojlangan. Har yili mamlakatimizga xorijiy davlatlardan 4-5 millionga yaqin turist tashrif buyuradi. Bu esa bizning iqtisodiyotimizga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtda turizm sohasi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning rivojlanish darajasini mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmining real o'sish darajasi hamda tarmoq va sohalarning undagi ulushining o'zgarishi hamda aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi asosiy ko'rsatkichlarning miqdori o'zida aks ettiradi.

Bugungi kunda iqtisodiyotimizda turizmning ulushini oshirish, yangi ish o'rinlari tashkil qilish, aholi turmush darajasini yaxshilash, ish bilan band bo'lgan aholi qatlamini ijtimoiy himoya qilish ularni dam olishlarini mazmunli tashkil etish